<i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>	
Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish	626
<i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyalı bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils	670
Ataullayev Fazliddin	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
Bovanova Umida Abduvahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
Bovanova Umida Abduvahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya pánin oqítw arqalı oqíwshılardıń kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	

TIBBIY KIMYO DARSLARIDA TALABALARNING KLINIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Xolmurodova D. K.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Tibbiy kimyo kafedrasini mudiri, t.f.d., professor

Safarova N. S.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi
Immunologiya, allergologiya va inson genomikasi
ilmiy markazi kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada "Tibbiy kimyo" fanini o'qitish jarayonida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining klinik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy uslubiy yondashuvlar tahlil qilingan. Ushbu fan bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy tafakkurini shakllantirishda fundamental nazariy asos bo'lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Kimyoviy bilimlarni klinik vaziyatlar bilan integratsiyalash, talabalarda analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, laboratoriya ma'lumotlarini talqin qilish hamda asosli kasbiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan faol o'qitish metodlari yoritilgan. Muammoli ta'lim, keys-stadi, fanlararo integratsiya va kontekstli yondashuvlardan foydalanish talabalarning klinik fikrlash darajasini oshirishda samarali vosita ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy kimyo, klinik tafakkur, kasbga yo'naltirilgan ta'lim, keys-stadi, muammoli ta'lim, o'qitish metodikasi.

Abstract: This article analyzes modern methodological approaches to developing clinical thinking in medical university students during the study of the discipline "Medical Chemistry." The role of this subject as a fundamental theoretical basis for shaping the professional thinking of future healthcare specialists is substantiated. Active teaching methods aimed at integrating chemical knowledge with clinical situations, developing analytical skills, interpreting laboratory data, and forming the ability to make well-reasoned professional decisions are presented and analyzed. The effectiveness of problem-based learning, case studies, interdisciplinary integration, and a contextual approach in enhancing students' clinical reasoning skills is demonstrated.

Key words: medical chemistry, clinical thinking, professionally oriented education, case study, problem-based learning, teaching methodology.

Аннотация: В статье проанализированы современные методические подходы к развитию клинического мышления студентов медицинских высших учебных заведений в процессе изучения дисциплины "Медицинская химия". Обоснована роль данной учебной дисциплины как фундаментальной основы формирования профессионального мышления будущих медицинских работников. Рассмотрены активные методы обучения, направленные на интеграцию химических знаний с клиническими ситуациями, развитие аналитических навыков, интерпретацию лабораторных данных и формирование способности принимать обоснованные профессиональные решения. Показано, что использование проблемного обучения, кейс-стади, междисциплинарной интеграции и контекстного подхода способствует повышению уровня клинического мышления студентов.

Ключевые слова: медицинская химия, клиническое мышление, профессионально-ориентированное обучение, кейс-стади, проблемное обучение, методика преподавания.

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimi tez o'zgaruvchan klinik amaliyot sharoitida samarali faoliyat ko'rsata oladigan mutaxassisni tayyorlashga qaratilgan. Shu munosabat bilan bo'lajak tibbiyot xodimi shaxsining integrativ qobiliyati sifatida klinik tafakkurni shakllantirish kasbiy ta'limning asosiy vazifasiga aylanadi. Klinik fikrlash mutaxassisga bemorning holatini tahlil qilish, laborator va instrumental tekshiruvlar natijalarini sharhlash, kasallik belgilari va patogenetik mexanizmlar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash hamda davolash jarayonida asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Klinik tafakkur – bu tibbiy bilimga yaxlitlik va tugallanganlik baxsh etadigan dialektik tafakkurning mazmungan o'ziga xos jarayoni ^[1].



Klinik tafakkurga berilgan ushbu ta'rifda u inson tafakkurining alohida, favqulodda turi emasligi, balki inson tafakkuri umuman intellektual faoliyatning har qanday shaklida, har qanday kasbda va bilimning har qanday sohasida yagona ekanligi to'la haqli ravishda e'tirof etiladi. Shu bilan birga, mazkur ta'rifda klinik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari ham ta'kidlanib, uning ahamiyati shakllanishi va rivojlanishi muammosini ko'rib chiqishda hisobga olinishi zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Klinik tafakkurning o'ziga xosligi, uni boshqa tafakkur turlaridan ajratib turadigan xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Tibbiyotdagi tadqiqot predmeti nihoyatda murakkab bo'lib, mexanik jarayonlardan tortib molekulyar jarayonlarga, inson hayot faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Shuningdek, u ilmiy asoslanmagan, ammo mavjud deb hisoblanadigan ayrim yo'nalishlar – ekstrasensorika, bioenergetika kabi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi [2].

Hozirgi tibbiyotda diagnostika jarayonida aniqlanadigan kasalliklarning o'ziga xos bo'lmagan simptomlari va sindromlari muhokama qilinadi. Bu esa klinik tibbiyotda faqat bitta kasallikka xos bo'lgan mutlaq belgilar mavjud emasligini anglatadi. Har qanday alomat ma'lum bir kasallikda bemorda bo'lishi yoki bo'lmastligi mumkin. Aynan shu holat klinik tashxisning ko'pincha ma'lum darajada gipoteza sifatida shakllanishini izohlaydi. Bu fikr o'z vaqtida S.P. Botkin tomonidan ham ta'kidlangan [3].

Klinik amaliyotda turli sabablarga ko'ra dori vositalari va davolash usullarining ulkan majmuasidan hamda barcha tadqiqot usullaridan to'liq foydalanish imkoniyati mavjud emas.

Tibbiyotda barcha jarayonlarni nazariy jihatdan to'liq tushuntirib bo'lmaydi. Masalan, ko'plab belgilar mexanizmi hozirgi davrgacha ham noma'lumligicha qolmoqda. Shu sababli umumiy patologiya tobora inqiroz holatiga tushib borayotgani qayd etiladi.

Klinik tibbiyot Burgavdan boshlab mustaqil fan sohasi sifatida "klinik tibbiyot" nomi bilan atala boshlagan [4]. Uning o'ziga xos jihati shundaki, klinik tafakkur talaba, shifokor-o'qituvchi va bemor o'rtasidagi muloqot jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Klinik tafakkurning rivojlanishi terapiya, jarrohlik, farmakologiya, patofiziologiya kabi klinik fanlar bilan chambarchas bog'liq. Biroq so'nggi yillarda talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirishda fundamental fanlar, jumladan, tibbiy kimyoning roliga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada kuchaymoqda. Tibbiy kimyo ta'lim oluvchilarda biologik jarayonlarning kimyoviy tabiati, dorivor moddalarning ta'sir mexanizmlari, biologik faol birikmalarining xususiyatlari, shuningdek, patologik holatlarning kimyoviy asoslari haqidagi tushunchalarni shakllantiruvchi asosiy o'quv fanlardan biri hisoblanadi.

Shunga qaramay, tibbiy kimyoni o'qitish amaliyotida ko'pincha akademik–abstrakt yondashuv saqlanib qolmoqda. Bunda o'quv materiali talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatidan ajratilgan holda bayon etiladi. Natijada ta'lim oluvchilarda klinik tafakkur vositasiga aylanmaydigan formal bilimlar shakllanadi. Bu holat kimyo fanlarini o'rganish bosqichidayoq o'qitishning kasbiy yo'naltirilganligini ta'minlash hamda klinik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali metodik usullarni izlash va amaliyotga joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu maqolaning maqsadi tibbiy kimyo darslarida talabalarning klinik fikrlashini rivojlantirish usullarini tahlil qilish va ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiyot oliy o'quv yurtida kimyo fanlarini o'zlashtirish klinik tafakkurni shakllantirishga qanday hissa qo'shadi, degan savol ilmiy adabiyotlarda muhim muammolardan biri sifatida qaraladi. Avvalo, umumiy va organik kimyo fanlarining mazmuniy asoslarini o'zlashtirish biokimyo, fiziologiya, patofiziologiya, gigiyena hamda keyingi barcha klinik fanlarni idrok etishning zarur poydevori sifatida talqin etiladi. Bu jihat tibbiy kimyo dasturining alohida bo'limlari misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Kimyoviy termodinamika asoslarini o'rganish bo'lajak shifokorda organizmning energiya balansi, hayotiy faoliyat jarayonlarida turli energiya turlarining o'zgarish xususiyatlari haqida aniq tushunchalarni shakllantiradi hamda organizmda kimyoviy reaksiyalar amalga oshirishining obyektiv mezonlarini aniqlashga imkon beradi.

Kimyoviy kinetika va kimyoviy muvozanat qonuniyatlarini o'rganish fermentlarning ta'sir mexanizmini tushunishga, biokimyoviy reaksiyalarning yo'nalishini oldindan bashorat qilishga yordam beradi. Atomlarning elektron tuzilishi, kimyoviy bog'lanish tabiati va molekullarning fazoviy tuzilishini o'rganish biologik jarayonlarning molekulyar asoslarini anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Biogen elementlar va ularning birikmalarining fizik–kimyoviy xossalarini o'rganish kelgusida ularning biologik rolini, fermentlar, vitaminlar va gormonlar ta'sir mexanizmlarini, shuningdek, bir qator irsiy, endemik va tanqis elementli kasalliklar (buqoq, kariyes va boshqalar) rivojlanishidagi ahamiyatini aniqlashga asos yaratadi. Bu bilimlar gigiyena fanida ifloslanish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini tahlil qilish uchun ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.



Eritmalarning fizik–kimyoviy xossalarini o'rganish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Moddalarning erish va dissotsiatsiya jarayonlari, diffuziya, osmos, pH o'zgarishlari hamda bufer tizimlar ta'sirini tahlil qilish hujayra membranalar funksiyasini, kislota–asos muvozanatini, yurak–qon tomir tizimi, o'pka va buyraklar faoliyatini, shuningdek, turli davolash usullarining terapevtik ta'sir mexanizmlarini tushunish uchun zarur hisoblanadi. Masalan, fizikaviy kimyoda “laminar oqim” tushunchasi o'rganiladi. Bu holatda suyuqlik zarrachalari bir-biriga to'sqinlik qilmasdan bir tekis oqadi. Ushbu oqim xususiyatini o'rganish qon tomirlarida qon oqimini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar qon oqimi laminar bo'lmay, tartibsiz kechganida edi, qon tomirlari devorlari tezda shikastlangan bo'lar edi.

Organik kimyoni o'rganish jarayonida tabiiy organik birikmalar molekularining elektron va fazoviy tuzilishini ularning biologik ta'siri bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilish keyinchalik ushbu birikmalarning biokimyoviy reaksiyalardagi o'zgarishlarini tushunish imkonini beradi hamda dori moddalarining tasnifi, tuzilishi va xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi ^[1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini ta'limda kompetensiyaviy, tizimli–faoliyatli va kontekstli yondashuvlar qoidalari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida klinik fikrlash muammosi bo'yicha pedagogik, psixologik va uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, “Tibbiy kimyo” fanining ishchi dasturlari va mazmunini o'rganish, oliy ta'lim muassasalarida tibbiy kimyoni o'qitish bo'yicha mavjud pedagogik tajribani umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, talabalarining klinik fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan o'quv vaziyatlari va metodik usullarni modellashtirish ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqot obyekti sifatida “Tibbiy kimyo” fani bo'yicha ta'lim jarayoni, tadqiqot predmeti sifatida esa talabalarining klinik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi o'qitish usullari va metodlari belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tibbiy ta'limda klinik tafakkur tushunchasi va uning tuzilishi muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Klinik fikrlash kognitiv, analitik va prognostik komponentlarni o'z ichiga olgan murakkab, ko'p darajali jarayon hisoblanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan klinik fikrlashni ta'lim oluvchining kasbiy ahamiyatga ega vaziyatlarni tahlil qilish hamda qaror qabul qilish jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati sifatida talqin etish mumkin. Klinik fikrlash tuzilmasida dastlabki ma'lumotlarni, jumladan simptomlar, tahlil ko'rsatkichlari va moddalarning kimyoviy xususiyatlarini tahlil qilishni o'z ichiga olgan analitik komponent, sabab–oqibat aloqalarini aniqlashni ta'minlovchi mantiqiy-sintetik komponent, olingan natijalarni klinik ahamiyati nuqtayi nazaridan sharhlash bilan bog'liq interpretatsion komponent hamda aralashuvning mumkin bo'lgan oqibatlarini baholashni nazarda tutuvchi prognostik komponent ajratib ko'rsatiladi. Tibbiy kimyo mazkur tarkibiy qismlarning barchasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muammoli ta'lim klinik tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv talabalarining faol fikrlash faoliyatini talab qiladigan o'quv vaziyatlarini yaratishga asoslanadi. Tibbiy kimyo fanida bu klinik kontekstga murojaat qilmasdan aniq yechimga ega bo'lmagan muammoli masalalar va vazifalarni qo'yish orqali amalga oshiriladi. Masalan, kislota–asos muvozanatini o'rganishda talabalarga ayrim patologik holatlarda metabolik atsidoz rivojlanishining sabablarini tushuntirish vazifasi beriladi. Bunday muammoni hal etish qonning bufer tizimlari, organik kislotalar va pHni tartibga solishning fiziologik mexanizmlari haqidagi bilimlarni integratsiyalashni talab qiladi. “Uglevodlar” mavzusini o'rganishda nonni uzoq vaqt chaynaganda og'izda shirin ta'm paydo bo'lishi sabablari yoki glyukoza va fruktozaning mis (II) gidroksidi bilan reaksiyaga kirishishidagi farqlarni tushuntirish kabi muammoli savollar qo'yilishi mumkin.

Tibbiy kimyoni o'qitishda keys usulidan foydalanish ham klinik tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Keys-metod real kasbiy vazifalarni modellashtiruvchi o'quv klinik vaziyatlarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Tibbiy kimyo doirasida keyslar laboratoriya tahlillari natijalari, dori vositalari haqidagi ma'lumotlar va bemor alomatlarining tavsifini o'z ichiga olishi mumkin. Keyslar bilan ishlash kimyoviy ko'rsatkichlarni talqin qilish ko'nikmalarini shakllantirish, klinik mantiqni rivojlantirish va kimyoviy bilimlarning amaliy ahamiyatini anglashga xizmat qiladi. Masalan, noma'lum gazning hidsiz, ta'msiz va rangsiz bo'lishi, suv va karbonat angidrid hosil qilib yonishi, uning turmushda yoqilg'i sifatida, qishloq xo'jaligida va metallurgiyada keng qo'llanilishi haqidagi tavsif asosida ushbu moddaning nomini aniqlash, qaysi sinf birikmalariga mansubligini belgilash, sifat va miqdoriy tarkibini ko'rsatish, kislorod bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan moddalarni aniqlash hamda mazkur reaksiyaning yonish deb atalish sabablarini izohlash vazifalari berilishi mumkin.

Fanlararo integratsiya klinik tafakkurni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv talabalarga tibbiy kimyoni alohida fan sifatida emas, balki tibbiy bilimlar tizimining ajralmas qismi sifatida idrok etish imkonini beradi. Ayniqsa, fiziologiya, biokimyo, farmakologiya va patofiziologiya fanlari bilan integratsiya



samarali hisoblanadi. Masalan, eritmalar va osmotik bosimni o'rganishda infuzion terapiyaning klinik jihatlarini tahlil qilish yaxlit kasbiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Kislotas-asos muvozanati va bufer tizimlar mavzusida bemor qonida atsidoz kuzatilganda, pH ko'rsatkichi me'yoriy 7.4 dan 7.1 gacha pasaygan sharoitda bikarbonat buferi konsentratsiyalari nisbatini ($\text{HCO}_3^-/\text{H}_2\text{CO}_3$) hisoblash va ushbu nisbat o'zgarishining kislorod transportiga ta'sirini aniqlashga doir masalalar metabolik atsidoz diagnostikasi va patogenezig oid tushunchalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Osmos mavzusida esa qon sirkulyatsiyasi uchun zarur hajmni tiklash maqsadida 500 ml eritma tayyorlash, eritrotsitlar gemolizining oldini olish uchun 0.9% li fiziologik eritmaning osmolyarlik jihatdan yetariligidini aniqlash hamda natriy xloridning to'liq dissotsilanishini hisobga olgan holda eritmaning osmolyarligini hisoblash vena ichiga dori yuborishda xavfsizlik masalalarini anglash imkonini beradi.

Kontekstli va loyihaviy ta'lim yondashuvlari ham klinik tafakkurni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Kontekstli ta'lim o'quv jarayonida kasbiy faoliyatni modellashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, topshiriqlarning kasbiy ahamiyatga ega vaziyatlar shaklida berilishi talabalarning motivatsiyasini oshiradi va klinik fikrlashni faollashtiradi. Loyihaviy faoliyat esa ta'lim oluvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash va mustaqillikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik tajriba va metodik adabiyotlarni tahlil qilish natijalari klinik fikrlashni rivojlantirish fundamental fanlarni o'rganish bosqichidayoq mumkin ekanligini tasdiqlaydi. Tibbiy kimyo fanida ta'limning faol usullaridan maqsadli foydalanish kasbiy tafakkurni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. An'anaviy va kasbiy yo'naltirilgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili klinik kontekstni kiritish o'quv materialini ongli o'zlash-tirish darajasini oshirishini, fanlararo barqaror aloqalarni shakllantirish va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirish tibbiy kimyoni o'qitishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Muammoli ta'lim, keys-metod, fanlararo integratsiya va kontekstli yondashuvdan foydalanish kimyoviy bilimlarni bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyati vositasiga aylantirish imkonini beradi. Ushbu usullarni amaliyotga joriy etish tibbiy ta'lim sifatini oshirishga hamda klinik muammolarni hal etishga tayyor, yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Царегородцев Г. И. Диалектический материализм и теоретические основы медицины / Г. И. Царегородцев, В. Г. Ерохин. – М., 1986. – 288 с.
2. Тетенов Ф. Ф., Бодрова Т. Н., Калинина О. В. Формирование и развитие клинического мышления – важнейшая задача медицинского образования // Успехи современного естествознания. – 2008. – № 4. – С. 20–20.
3. Боткин С. П. Курс клиники внутренних болезней / С. П. Боткин. – М., 1950. – Т. 1. – 364 с.
4. Диагноз. Диагностика // БМЭ. – 3-е изд. – М., 1977. – Т. 7.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.